

**TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARDA BADIY TASAVVURNI
SHAKILLANTIRISH**

Ikromova Xatichabonu Umidjon qizi

*Andijon davlat pedagogika institute Magistratura bo'limi Tasviriy san'at
yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san'at darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda badiiy tasavvurni rivojlantirish masalasi ilmiy jihatdan yoritilib beradi. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda anglash, tushunish va tahlil qilish orqali badiiy tasavvurni shakillantiradi. Shuningdek, badiiy tasavvurni shakillantirish usullari va innovatsion texnologiyalarni o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini hamda estetik tafakkuriga korsatadigan tasiri asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, innovatsion, pedagogik, tasavvur, yondashuv, ilg'or metodlar, samaradorlik, ijodiy fikirlash, estetik tarbiya, pedagogik salohiyat, ijodiy salohiyat, 3D modellashtirish.*

Kirish;

Bugungi raqamlashgan ta'lim davrida darslarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ularni ta'limga tadbiq etish bugungi kundagi dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. Tasviriy san'at darslari ham bundan mustasno emas, tasviriy san'at insonlarda nafaqt badiiy tasavvurni oshiradi, estetik didini rivojlantiradi, dunyo qarashini boyitadi va ruhiy zavq beradi. Mazkur mavzu doirasida tasviriy san'at darslarida innovatsion texnologiyalarning o'rni, ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati va amaliyotda qo'llanishi tahlil qilinadi. Shuningdek o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirokini taminlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Innovatsion texnologiyalar — bu o'quv jarayoniga yangi metodlar, raqamli vositalar va interaktiv platformalarni joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishni maqsad qilgan yondashuvdir. Tasviriy san'at darslarida ular quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: 1. murakkab kompozitsiyalarni virtual ko'rinishda namoyish etish; 2. mashqlarni bosqichma-bosqich kuzatish va takrorlash; 3. ranglar uyg'unligini raqamli palitra orqali o'rganish; 4. 3D modellashtirish orqali shakl va hajmni chuqur anglash; 5. O'quvchining individual qobiliyatiga mos topshiriqlar berish.

“Yangi pedagogik texnologiyaning barcha prinsiplari, didaktik talablari, metodik yo‘nalishlari va uslublaridan maktabdagi tasviriy san‘at darslarida foydalanish imkoniyatlari juda keng bo‘lib, ularni har biri juda yaxshi samara beradi”⁵².

O‘zbekiston va xorijiy olimlarning pedagogik va badiiy ta‘limga oid tadqiqotlarida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati ko‘p bor ta‘kidlanadi. Xususan:

J. Dewey – ta‘lim jarayonida tajriba va faol ishtirokning ustunligini asoslagan.

L.S. Vygotskiy – tasavvur va kreativ fikrlash rivojida interaktiv faoliyatning muhimligini ko‘rsatgan.

Ilmiy yangilik:

Mazkur tadqiqotda tasviriy san‘at ta‘limida innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarda badiiy tasavvurni shakllantirishga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda bir nechta ilmiy yangiliklar asoslab berildi.

Birinchidan, tasviriy san‘at darslari uchun “Badiiy tasavvurni rivojlantirishning innovatsion modeli” ishlab chiqildi. Ushbu model o‘quv jarayonini an‘anaviy komponovkadan farqli ravishda vizual, raqamli va interaktiv faoliyatlar uyg‘unligiga asoslanadi. Model quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

- raqamli kuzatuv va vizual tahlil qilish bosqichi;
- kreativ transformatsiyalash bosqichi;
- ijodiy refleksiya bosqichi.

Ikkinchidan, tadqiqot jarayonida innovatsion texnologiyalar yordamida badiiy tasavvurni o‘lchashga mo‘ljallangan “Ijodiy fikrlash darajasi indikatorlari” taklif etildi. Ushbu indikatorlar orqali o‘quvchilarning ranglarni his qilish, tasviriy ifoda vositalaridan foydalanish, predmetlarni kompozitsion talqin etish, emotsional obraz yaratish kabi sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholanishini ta‘minlay olamiz.

Uchinchidan, tasviriy san‘at darslarida VR galereyalar, interaktiv 3D modellar, virtual sayohatlar, raqamli kollaj yaratish, sun‘iy intellekt yordamida eskiz tayyorlash kabi didaktik vositalarni o‘quv faniga moslashtirish bo‘yicha yangi metodik tavsiyalar tashkil etildi. Ushbu tizim o‘quvchilarni passiv kuzatuvchidan faol ijodkor darajasiga olib chiqish orqali badiiy tasavvurni sezilarli darajada o‘stirishga xizmat qiladi.

Nihoyat, tadqiqot innovatsion vositalar yordamida o‘quvchi shaxsining estetik didi, ijodiy qiziqishi, tasviriy ifoda madaniyati va kompozitsion tafakkurining rivojlanish jarayonini ilmiy asosda izohlab berganligi bilan ahamiyatlidir.

⁵² Oripov B.N. Tasviriy san‘at darslarisamaradorligini oshirish omillari. – Toshkent: „Ilm ziyo“ - 2013.

O‘zbekiston pedagog olimlari (A. Qodirov, N. To‘xtayev, M. Ochilov) – san’at ta’limida zamonaviy texnik vositalar o‘quvchi motivatsiyasini oshirishini ta’kidlashgan. Bu nazariyalar innovatsion metodlarning o‘quvchilar badiiy tasavvuriga ijobiy ta’sirini ilmiy asoslaydi. “O‘quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va ulardan unumli natija ola bilish pedagogdan katta salohiyat hamda mahorat talab etadi⁵³”.

Shunday ekan pedagogdan darsni innovatsion texnologiyalardan foydalanishda nafaqat bilim, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat va texnologik bilim hamda tajriba ham talab etiladi. Pedagog hodim shularni uddasidan chiqa olsagina ko‘zlangan maqsadga ya’ni o‘quvchilarni badiiy tasavvurini oshira oladi, balki ularda ma’naviy dunyo qarashni kengaytirishga, estetik didini oshirishga va darsga katta qiziqish bilan bir qatorda ularni darsda faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Multimedia darslari

Ovoz, video, animatsiya va grafik elementlarni uyg‘un qo‘llash o‘quvchilar diqqatini jalb qiladi, mavzuning mazmunini chuqur ochib berishga yordam beradi. Masalan: animatsion rang doiralari, harakatdagi yorug‘lik-soya tajribalari,

3D modellashtirilgan buyumlarni tahlil qilish,

Ushbu usullar o‘quvchilarda badiiy tasavvurni faol ishlashga zamin yaratadi.

Dars jarayonini samaradorligini oshirishda bir qancha innovatsion metodlardan foydalanishimiz mumin.

Masalan, Raqamli vizualizatsiya metodi, Bu metodda o‘quvchilar 3D modellar, interaktiv tasvirlardan foydalanadilar bu esa o‘quvchilarda shakl, rang, kopozitsiya haqida tasavvurni mustahkamlaydi.

Raqamli kollej metodi.

O‘quvchilar Photoshop, Canva kabi dasturlarda kollajlar yaratish orqali, tasavvur, ranglar uyg‘unligi, predmetlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘ra bilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Dunyoga mashhur YUNESKO tashkiloti maxsus anjumanlarida ham ta’lim taraqqiyoti ko‘p jihatdan pedagogik texnologiya muammosining to‘g‘ri hal etilishi bilan bog‘liq ekanligini qayta-qata qayd etilishi, hali bu yo‘nalishda ko‘pgina izlanishlar qilinishidan dalolat beradi⁵⁴.

Tasviriy san’at darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarni zamonaviy san’at olamiga tayyorlaydi, ularni badiiy tasavvurini kengaytiradi, kreativ fikirlashini rivojlantiradi, 3D modellashtirish, interaktiv metodlar yordamida ta’lim jarayoni yanada qiziqarli, samarali va innovatsion tus oladi.

⁵³ Shokiriva H. “Ta’limda innovatsion texnologiyalarning o‘mi”. –Toshkent: Yangi asr avlodi”, 2013-yil, 3-bet

⁵⁴ Ismoilov O.A, Nazarov Sh.Q. “Ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar”. –Toshkent: Fan va texnologiya. 2012, 4-bet.

Bu esa o'quvchilarni mustaqil fikirlashiga, estetik didini rivojlanishiga, shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Erishilgan natijalar:

Ushbu tadqiqot asosida o'tkazilgan amaliy tajribalar o'quvchilarda badiiy tasavvurni shakllantirish jarayoni innovatsion texnologiyalar yordamida sezilarli darajada o'sganini ko'rsatadi. Natijalar quyidagicha umumlashtirildi:

1. O'quvchilarning kuzatuvchanlik va vizual idrok darajasini oshirdi.

Interaktiv taqdimotlar, raqamli maketlar va vizual namoyishlar o'quvchilarga narsa-hodisalarning shakl, rang va faktura jihatlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. O'quvchilar real va virtual obyektlar o'rtasidagi farqlarni aniqlashda, tasvirni kompozitsion jihatdan joylashtirishda samarali natijalar ko'rsatdi.

2. Dars jarayonida mustaqil ijodkorlik faollashdi.

Raqamli grafik dasturlar AR/VR ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi vizual dasturlar o'quvchilarning mustaqil kreativ qarorlar qabul qilishiga, original obrazlar yaratishiga turtki bo'la oldi. Ular mavzuni o'z badiiy talqini asosida qayta ishlashga harakat qildi.

3. Badiiy tafakkur va tasviriy ifoda malakalari sezilarli rivojlandi.

Tajriba darslaridan so'ng o'quvchilarning:

- rang uyg'unligi bilan ishlash salohiyati;
- shakl va konstruksiya tuzish bilmalari;
- predmetlarni fazoviy tasavvur qilish qobiliyati;
- obraz yaratishda emotsional ifodaviylik kabi qobiliyatlari oshganligi aniqlandi.

4. O'quvchilar motivatsiyasi va darsga bo'lgan qiziqish darajasi sezilarli darajada oshdi.

Innovatsion vositalar bilan ishlash o'quvchilarni darsga jalb etishning samarali usuli bo'lib, ularning tasviriy san'atga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgardi. O'quvchilar darsdan tashqari vaqtda ham grafik dasturlar bilan ishlashni davom ettirganligi kuzatildi.

5. O'qituvchi faoliyati yengillashdi va dars sifati oshdi.

Taqdimotlar, animatsiyalar, 3D modellar, video instruktsiyalar darsning samaradorligini kuchaytirdi. Bundan tashqari, raqamli portfel yuritish orqali o'qituvchi o'quvchining rivojlanish dinamikasini aniq kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi.

6. Raqamli madaniyat va media savodxonlik rivojlandi.

Innovatsion texnologiyalar bilan ishlash o'quvchilarning zamonaviy raqamli vositalar bilan ishlash madaniyatini shakllantirdi, kreativ sohada axborot texnologiyalaridan ongli foydalanish ko'nikmasi mustahkamlandi.

Xulosa;

Ayni glaballashuv davrda zamon bilan hamnafas yashash uchun, zamondan ortda qolmaslik uchun, o'quvchilarimiz bilim salohiyati jahon miqiyosiga chiqishi uchun aynan

pedagoglarimiz katta xizmat qilishlari, dars mashg‘ulotlarini tashkil etishda an‘anaviy usullar, metodlar bilan cheklanmasdan yangi innovatsion texnologiyalardan keng foydalishlari talab etiladi.

Raqamlashgan davr yoshlarini yangi usullar, metodlar va innovatsion ta‘lim texnologiyalari bilangina rivojlantira olamiz.

Yuqoridagi ilmiy-amaliy natijalardan kelib chiqib, tasviriy san‘at darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarda badiiy tasavvurni shakllantirishning eng samarali pedagogik yo‘nalishlardan biri ekanini tasdiqlash mumkin.

Birinchidan, innovatsion texnologiyalar didaktik jarayonning samaradorligini oshirib, o‘quvchilarni nafaqat tayyor ma‘lumotlar iste‘molchisi, balki faol ijodkor darajasiga ko‘tariladi. Balki bu jarayon davomida o‘quvchilarning kuzatuvchanligi, tasavvur kengligi, obraz yaratishdagi mustaqilligi, badiiy fikrlashi va estetika madaniyati izchil rivojlantiradi.

Ikkinchidan, raqamli vositalardan foydalanish tasviriy san‘atni real hayot voqeliklari bilan uyg‘unlashtiradi, bunda virtual galereyalar, 3D modellar, AR/VR loyihalar, raqamli kollajlar, sun‘iy intellekt yordamida tasvir yaratish kabi yangi metodlar dars jarayonini innovatsion, qiziqarli va samarali qiladi.

Uchinchidan, o‘quvchilarda badiiy tasavvurni shakllantirish faqat an‘anaviy tasviriy mashg‘ulotlar bilan chegaralanmasdan, zamonaviy texnologik imkoniyatlar bilan boyitilishi lozim. Shunda o‘quvchilarda kompozitsion tafakkur, ijodkorlik, badiiy did va kreativ qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari tubdan rivojlanadi.

Nihoyat, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar tasviriy san‘at darslarini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning badiiy dunyoqarashi va estetik madaniyatini shakllantirish, ijodiy qobiliyatini yanada kuchaytirish uchun zarur bo‘lgan eng samarali ta‘limiy mexanizmdir.

Yuqoridagi metodlar, va usullardan samarali foydalana olsaggina nafaqat dars jarayoni o‘zgaradi, balki o‘quvchilar, ularning yaqinlarining dunyo qarashini ham o‘zgartira olamiz. San‘atga bo‘lgan hurmatini, qiziqishini uni ardoqlashini taminlay olamiz. Buning uchun esa faqat va faqat hurmatli pedagoglarimizdan katta salohiyat, bilim va ko‘ikma talab etamiz.

ADABIYOTLAR

1. B.N.Oripov. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish omillari. – Toshkent: „Ilm ziyo“ - 2013.
2. Havasxon Shokiriva, “Ta‘limda innovatsion texnologiyalarning o‘rni”. –Toshkent: Yangi asr avlodi”, 2013-yil, 3-bet

3. Ismoilov O.A, Nazarov Sh.Q. “Ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar”. –Toshkent: Fan va texnologiya. 2012, 4-bet